

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>I.O.Raxmonova</b>	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri.....	1111
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
О некоторых тайнах Французских артиклей.....	1115
<b>D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva</b>	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
<b>G.S.Mirzayeva</b>	
Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
<b>N.K.Abbasova</b>	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
<b>A.A.Qayumov, A.B.Kosimova</b>	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi.....	1130
<b>D.I.Mirzayeva</b>	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
<b>D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva</b>	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida.....	1137
<b>Sh.B.Dushatova</b>	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms.....	1140
<b>Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova</b>	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
<b>Z.M.Xalilova</b>	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida.....	1148
<b>A.S.Toshmatov</b>	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education).....	1153
<b>N.X.Qurbonov</b>	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners.....	1160
<b>D.E.Normatova</b>	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
<b>D.R.Axmadaliyeva</b>	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
<b>N.Sh.Abdullayeva</b>	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
<b>S.A.Aliyeva</b>	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	1185
<b>M.A.Axundjanova</b>	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students.....	1189
<b>R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova</b>	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari.....	1193
<b>F.B.Abduraximova</b>	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi.....	1203
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
<b>L.T.Galimullina</b>	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals.....	1210



UO'K: 813.21.978

**ABBREVIATSIYA SO'Z YASASHNING SAMARADOR USULI SIFATIDA**  
**МЕТОД СОЗДАНИЯ АББРЕВИАТУР КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ**  
**THE MOST EFFECTIVE METHOD OF CREATING AN ABBREVIATION.**

**G'aniyeva Dildoraxon Azizovna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti ingliz filologiyasi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori**Yaxyoyeva Sevara<sup>2</sup>**<sup>2</sup>Magistrant, Farg'ona davlat universiteti**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida so'z yasash usullari va ayniqsa abbreviatsiya usulining kelib chiqishi va o'rganilishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu abbreviatsiya usulidan foydalanishda ingliz va o'zbek tillarida duch keluvchi qiyinchilik va tafovutlar haqida olib borilgan izlanishlar natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek ushbu maqolada abbreviatsiya usuli orqali yasalgan so'zlarning ijtimoiy sohaning turli yo'nalishdagi muhimlik darajasi, undagi tilni yorqinroq ifoda etishdagi muhim xususiyatlari ifoda etiladi. Qolaversa, abbreviatsiya usuli hozirgi kunda keng ommalashib borayotgan tilni ifoda etish usuli bo'lganligi uchun bu maqolada abbreviatsiyaning matndagi ixchamligi, og'zaki nutqdagi boshqa usullardan ajralib turadigan tomonlari ham muhokama etiladi. Shuningdek, bu maqolada abbreviatsiya usuli haqida, uning muhimlik darajasi haqida bildirilgan turli xil olimlarning fikr va mulohazalari muhokama etiladi. Maqolaning xulosa o'rnida abbreviatsiya usulining kelajakdagi muhimlik darajasi, uning yangi so'z yasash usuli sifatida ommalashishi, qolaversa yangi usul sifatida tilimizni boyitishi bo'yicha mulohazalar ko'rib chiqiladi.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается изучение способов словообразования в английском и узбекском языках, и особенно метода сокращения. Также проводятся исследования трудностей и различий, возникающих при использовании данного способа сокращения в английском и узбекском языках. В этой статье через метод аббревиатурного образования выражается важность различных аспектов общественной области, важные характеристики выражения языка в этой сфере. Кроме того, рассматривается значимость аббревиатур в современном мире как способа выражения широко используемого языка. Она также обсуждает взгляды и наблюдения различных ученых о важности правила аббревиаций. В заключении статьи делаются выводы о будущей значимости метода аббревиатур в области разработки новых слов и распространения новых методов в нашем языке.*

**Abstract**

*This article discusses the study of the methods of word formation in English and Uzbek, and especially the method of abbreviation. Also, research is conducted on the difficulties and differences encountered in the use of this abbreviation method in English and Uzbek languages. In this article, the importance level of words created using the abbreviation method in various aspects of social field is explained, along with the important characteristics of expressing the language more clearly in that field. Furthermore, the article discusses the importance level of abbreviation in the current language as a method of expressing widely used languages, as well as aspects that set it apart from other methods of expression in oral communication. Additionally, various opinions and observations of different scholars about the importance level of abbreviation method are discussed. In the conclusion of the article, it is highlighted how abbreviation method can move forward in terms of importance level, its potential to develop as a new way of creating words, or alternatively, to expand our language as a new method is illustrated.*

**Kalit so'zlar:** so'z, so'z yasash usuli, abbreviatsiya, abbreviatsiya turlari, qisqartma so'zlar, muloqot.**Ключевые слова:** слово, способ словообразования, аббревиатура, виды аббревиатур, аббревиатуры, связь.**Key words:** word, word formation method, abbreviation, types of abbreviations, abbreviations, communication.**KIRISH**



So'nggi yillarda "axborot texnologiyalari" atamasining kuchayishi va bu atamaning jamiyatni bir bo'lagiga aylanishi muloqot jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Bu nafaqat og'zaki, balki yozma nutqda ham o'z ifodasini ko'rsata boshladi. Insonlar o'rtasidagi muloqotning asosiy omili hali ham nutq (yozma va og'zaki) bo'lganligi uchun ham o'zgarishlar birinchi navbatda unga ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli nutqda turli xil qisqartma so'zlar ham uchray boshladi. Shunday qilib, qisqartma so'zlar yangi so'z yaratish manbaalaridan biri sifatida keng tarqala boshladi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Abbreviatsiya, ya'ni qisqartma so'zlardan foydalanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qisqartma so'zlar orqali so'z yasash usuli ilk bor qadimgi Yunoniston va Rimda shakllana boshlagan. Qisqartma so'zlarning ilk namunalari Rimdagi Kolizey tarixiy obidasida ham uchraydi. Shuningdek, qadimgi Yunon-Rim tangalarida ham bunday qisqartmalar qo'llangan. Qisqartmalar yoki qisqartmalarning kelib chiqish tarixi yozma tilga ega bo'lgan barcha xalqlar tomonidan azaldan yozma ravishda qo'llanilgan. Qisqartmalarning maqsadi matnli ma'lumotlarning tashuvchisi (qayin po'stlog'i, keramik plitalar, pergament va boshqalar) va tez-tez ishlatiladigan so'zlar va iboralarni yozish tezligida joyni tejash edi. Qisqartmalar qadimgi yozuvlarda birinchilardan bo'lib, keyinchalik qo'lyozmalarda keng tarqalgan.

Abbreviatsiya usulidan ilm-fan sohasida ham keng foydalaniladi. Bu usul tadqiqotchilarga murakkab g'oyalarni ixcham tarzda yetkazish imkonini beradi.

Abbreviatsiya, ya'ni qisqartirish usuli lotinchadan "abbreviatura" italyanacha. "brevis" qisqacha so'zlaridan tashkil topgan. Bunday so'z yasash usulini asosan, qadimgi qo'lyozma va kitoblardagi so'zlarning qisqartirilgan shaklida uchratishimiz mumkin. Zamonaviy ijodiy ishlarda esa har qanday qisqartirilgan so'z yoki iboralar abbreviatsiyaga misol bo'ladi.

Qisqartmalar qo'shma so'z (2day,) va qisqartma so'zlarga (ASAP, LOL, B4) bo'linadi.

Abbreviatsiyalar qo'llanilishiga ko'ra ikkita keng guruhga bo'linadi: matn qisqartmalari va terminologik qisqartmalar.

Matn qisqartmalari bir yoki bir nechta muallif tomonidan qo'llaniladi va har bir alohida holatda ular mualliflar tomonidan matnda yoki eslatmalarda tushuntirilishi shart. Bunday tushuntirishsiz matn qisqartmalari odatda tushunarsizdir. Shu ma'noda, ular xuddi "mualliflik huquqi bilan himoyalangan" va muallifning o'zi ularga qanday ma'no qo'yganiga bevosita bog'liq. Bu usul asosan biror bir soha vakillariga mansub bo'lishi mumkin.

Abbreviatsiyalarni tahlil qilish tilshunos olimlar Alekseyeva, Axmanova, Borisov, Gorshunov, Dyujikova, Kubryakova, Sapogova, Balli, Martine, Marchanda, Paul, Soudek kabilarning tadqiqot ishlarida o'rganib chiqilgan.

Shuningdek, rus tadqiqotchilari Boduen de Kurtene, Polivanov, Shcherba, chet el tilshunoslaridan Martine, Pol, Tsipf kabi olimlar abbreviatsiyalarning yaratilish sabablari haqida izlanishlar olib borishga. Qisqartma so'zlarni yaratish uchun qo'shimcha lingvistik omillar tahlil qilingan, ularning farqlanishi va o'zaro bog'liqligi haqida nazariyalar keltirilgan.

Terminologik qisqartmalar esa odatda standart atamalarning sinonimik qisqa versiyalariga nisbatan qo'llaniladi. Terminologik qisqartmalarning asosiy manbalaridan biri jargondir.

#### NATIJA VA TAHLILLAR

Abbreviatsiyalar insonlarga nafaqat vaqt va makonni tejash usuli, balki ular bilimlarni saqlash uchun eng yaxshi vosita sifatida zarurdir. Hattoki tarixdan bizga ma'lum bo'lgan ierogliflardan foydalanishda ham bu usul qo'llanilgan. Ularning ahamiyatga molik tomoni shundaki, bunday so'z yasash usuli eng zarur ma'lumotlarni ixcham ko'rinishda saqlash imkoniyatini bergan.

Shuningdek, so'z yasashning bu usuli tarixiy bilimlarni kelajak avlodga saqlash uchun ham qo'l kelgan. Masalan, o'rta asrlarda Yevropada ulamolalar qo'lyozmalarni nusxalashda joyni tejash uchun ko'pincha so'zlarning qisqartma shakllaridan foydalanishgan. Ushbu qisqartmalar o'sha davr madaniyati va tili haqidagi qimmatli ma'lumotlarni saqlab beradi. Xuddi shunday, zamonaviy davrda ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan matnlardagi qisqartma shakllar til va aloqaning o'sha davrda qanchalik rivojlanganligi haqida qo'shimcha ma'lumotlar berishi mumkin.

Bugungi kunda turli xil ijtimoiy tarmoqlardan keng tarzda foydalanish abbreviatsiya usulining yanada kengayishiga zamin yaratmoqda. Hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan qisqartma so'z LOL (laugh out loud), B4, 2 day, BRO kabilardir.



## TILSHUNOSLIK

Shuni ta'kidlash kerakki, qisqartma so'zlar, ya'ni abbreviatsiyalardan foydalanish jarayonida kontekstga ham e'tibor qaratish joiz. "2" qisqartmasi "two" yoko "to" o'rnida qo'llanishi mumkin. "LOL" abbreviatsiyasi ham 3 ta "lots of luck", "lots of love" va "laugh out loud" iboralari o'rnida qo'llaniladi. Shu sababli, turli tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun kontekstdagi ma'noga e'tibor berish kerak.

Abbreviatsiyalar bilimlarni kelajak avlod uchun saqlash va yetkazib berishning muhim vositalaridan biridir. Ular bizga samarali muloqot qilish, tarixiy ma'lumotlarni saqlash va madaniy qadriyatlarni ifodalashimiz uchun imkon beradi.

**XULOSA**

Demak, yozuv va muloqotning dastlabki shakllaridan to zamonaviy texnologiyalar davrigacha qisqartma so'zlar va abbreviatsiyalar murakkab ma'lumotlarni ixcham tarzda yetkazish uchun qo'llanilgan. Biroq, tezkor xabar almashish va ijtimoiy tarmoq shakllarining ko'payishi abbreviatsiyalar shaklining yanada kengayishiga olib keldi. Abbreviatsiyalardan foydalanish insonlarning deyarli odatiy holatiga aylandi va u kundalik muloqotning bir qismi bo'lib qoldi.

So'z yasashning abbreviatsiya usuli vaqtini tejash imkoniyatini bersa-da, ba'zan tushunmovchilik va chetlanishga olib kelishi mumkin. Shu tufayli abbreviatsiyalardan foydalanishga kuchli e'tibor berib, boshqalar bilan samarali muloqot qilishga ishonch hosil qilish kerak.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Алексеев Д. И. Стилистические особенности буквенных аббревиатур и сложносокращенных слов // Вопросы стилистики: Тез. докл. на межвуз. науч. конф. Саратов, 1962. С. 8.
2. Gorshunov Yu.V. Pragmatics of the abbreviation - Ministry of Education of the Russian Federation. Moscow Pedagogical State University -T. - : Prometheus, 1999
3. Dyuzhikova E. A. Abbreviation in comparison with word composition: structure and semantics (based on the material of the modern English language). - M., 1997
4. <https://словарь-синонимов.рф/blog/proishozhdenie-slova-abbreviatura>
5. <https://longword.ru/sokrascheniya-v-internete-na-russkom-yazyke/>